RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINING METODOLOGIK MASALALARI

MONOGRAFIYA



UO‘K: 658.8:005.511
B 65
KBK: 65.291.3-21

S.N.Tashnazarov va b.q.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobining metodologik masalalari *[Matn]:* ***Monografiya*** */ Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ nashriyoti, 2026 - 202 bet.*

Monografiyada moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishda O‘zbekistonning o‘ziga xos yo‘li hamda Prezident Farmonlari va ma’ruzalarida belgilangan yo‘nalishlarni amalga oshirishda soha xodimlari oldida turgan vazifalar bayon etilgan. Ishda mulk (yer), bino, mashina va asbob-uskunalar, ijara hisobi, ishlab chiqarish tannarxi, xarajatlarning tasniflanishi, majburiyatlarni baholash va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, pul oqimi haqidagi hisobot, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot to‘g‘risidagi hisobotlarning tarkibi, mazmuni, tuzish va taqdim qilishning metodologik hamda MHXS asosida transformatsiya masalalari aks ettirilgan. Keltirilgan ishlanmalar ilg‘or korxona va tashkilotlar amaliy misollari bilan bog‘langan.

Taqrizchilar:
dotsent N.U.Xudoyberdiyev (SamISI),
i.f.f.d., PhD U.T. Eshmurodov (SDVMCHBTU).

Monografiya institut Kengashining 2025-yil 25-Dekabrdagi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (5-sonli majlis bayoni).

ISBN: 978-9910-225-79-6

© S.N. Tashnazarov va b.q., SamISI. 2026 y.
©“STEP-SEL” MChJ nashryoti. 2026 y.

shuningdek, moliyaviy hisobotda to‘liq ochiqlash korxonalarning investision jozibadorligini oshirish, audit xulosalarining ishonchliligini ta'minlash va milliy hisob tizimini xalqaro amaliyotga uyg‘unlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2.8-§. Ijara hisobining me’yoriy-huquqiy asoslari va ijarani tan olish bosqichlari

(G.A.Djumayeva assistent)

2020-yil 24-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o’tish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida»gi PQ 4611-son Qarori, 2020-yil 24 avgustdagi 507-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to’g’risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga buxgalteriya hisobi ob’yekti bo’lgan aktivlar, xususan uzoq muddatli aktivlar ijarasi tushunchasining iqtisodiy mohiyatini yanada chuqurroq o’rganishni, ular hisobini xalqaro hisob amaliyotidan kelib chiqib takomillashtirishni taqazo etmoqda. Shu bois bugungi kunda eng muhim masalalardan biri bu MHXS(moliyaviy hisobning xalqaro standartlari)larini o’rganish va uni joriy etish hisoblanadi.

Bizning oldimizga xalqaro standartlarni o’rganish, milliy hisob tizimi bilan integrasiyalash masalasi, ta’lim sohasiga to’liq kiritish, xo’jalik yurituvchi tashkilotlarda MHXS talablari asosida hisob siyosatini ishlab chiqish, moliyaviy hisobot shakllarini xalqaro tamoyillarga asosan tayyorlash, shuningdek buxgalteriya hisobi ob’yektlari(uzoq muddatli, joriy aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital) hisobining konseptual asosinini takomillashtirish vazifasi qo’yilmoqda. Bilamizki, yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, yangi bozorlarni rivojlantirish, korxona faoliyatini kengaytirish uzoq muddatli aktivlarga talabni keltirib

chiqaradi, shu o’rinda korxonalar oldida ikkita tanlov turadi, birinchisi uzoq muddatli aktivlarni sotib olish va ikkinchisi ularni ijaraga olish.[25]

Fan-texnikaning shiddat bilan rivojlanib borishini hisobga oladigan bo’lsak, uzoq muddatli aktivlarni ijaraga olish korxonalar uchun eng maqbul tanlov bo’ladi. Xususan zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida aktivlar ijarasi bilan bog’liq munosabatlar hajmi ortib bormoqda. Buni quyidagi ko’rsatkichlar orqali ham ko’rishimiz mumkin bo’ladi.

2023-yil yanvar-aprel oylarida ijara bo‘yicha xizmatlar 2 177,3 milliard so'mni tashkil etdi, ijaraning ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi 1,6 % ni tashkil etdi. O‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 103,9 % ni tashkil etdi. Ushbu xizmat turi bo‘yicha eng yuqori o‘sish sur’atlari Toshkent shahri (115,4 %) va Samarqand viloyatida (109,8 %) kuzatildi. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 3,9 % ga yuqori.[26]



2.1-rasm. “E-IJARA” axborot tizimi orqali soliq organlarida hisobga qo’yilgan ko’chmas mulk ijara shartnomalari(2024-yil 1-yanvar holatiga).[27]

[25] https://a78cf8ac-3ef5-4670-8fcd-a900ec94fdfb.filesusr.com/ugd/b06fdc_9ba288cfe4f34ea6bc14e29f6e4071dc.pdf?index=true

[26] https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/40692-ijar-a-xizmatlari-2

[27] https://t.me/fiskaltahlil

2.1-Rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2024-yil 1-yanvar holatiga soliq organlarida 531 757 ta ko‘chmas mulk ijara shartnomasi hisobga qo‘yilgan. Ko’chmas mulk ob’yektlari soni 300 876 ta, bu bilan bog’liq ijara summasi 8 661,9 mlrd so’mni tashkil etgan. Yuridik shaxslar o‘rtasida tuzilgan 144,9 mingdan ortiq ijara shartnomasi asosida 561,6 mlrd so‘m soliq hisoblanib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan ijara shartnomalari soni 30,2% va hisoblangan soliq summasi 31,2 %ga oshgan. Jismoniy shaxslar o‘rtasida tuzilgan 386,8 mingta ijara shartnomasi asosida 194,8 mlrd so‘m daromad solig‘i hisoblanib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan ijara shartnomalari soni 60,5 % va hisoblangan daromad solig‘i summasi 21 %ga oshgan.

Ma’lumotlardan ko’rinib turibdiki, ijara munosabatlari nafaqat buxgalteriya hisobi ob’yekti, balki soliq hisobining ham ob’yekti hisoblanadi. Demak, korxonalarda ijara hisobini to’g’ri yuritish, xalqaro standartlar asosida takomillashtirish buxgalteriya hisobining muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Turli axborot manbalari, adabiyotlar va me’yoriy-huquqiy hujjatlarda ijaraga quyidagicha ta’riflar berilgan:

Ijara (arab. - ijora) tarixiy-etnografik atama bo’lib, uning ikki ko’rinishi e’tirof etilgan:

1) Islom dini tarqalgan davlatlarda yer egalari tomonidan yerni ishlash uchun dehqonlarga berish shartlaridan biri bo’lib, yer egasining haqini pul bilan to‘langan. Yer egasi haqi hosildan ulush (natura tarzida) beriladigan bo‘lsa muzora’a deb atalgan. 20-asrning 20-yillariga qadar O‘rta Osiyoda ham keng tarqalgan bo‘lgan va u korandalik[28] deb yuritilgan.

2) mol-mulkni yollash va undan foydalanish bo‘yicha shartnoma. Unga ko‘ra, bir tomon (ijara beruvchi) ikkinchi tomon (ijara oluvchi)ga ma’lum to‘lov, ya’ni ijara haqi evaziga mol-mulkni vaqtincha foydalanish uchun beradi. Ijara haqi mol-mulkning qiymati va keltiradigan daromadiga bog‘liq bo‘lib, o‘zaro kelishuv bilan belgilanadi.[29]

[28] https://uz.wikipedia.org/wiki/Korandalik
[29] https://uz.wikipedia.org/wiki/Ijara

Ba'zi hollarda, jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va davlat organlari ham ijarachilar sifatida ishtirok etishlari mumkin. Mehnat jamoalari o'zlariga tegishli bo'lmagan, lekin foydalanish uchun berilgan ishlab chiqarish resurslarini ulardan samarali foydalanish maqsadida ijara shartnomasi asosida o'z korxonalaridan oladilar. Shuningdek, korxonalar bir-biri bilan tuzilgan ijara shartnomalariga muvofiq asosiy ishlab chiqarish vositalari va noishlab chiqarish obyektlarini ma'lum muddatga ijaraga olishlari mumkin. Ushbu vositalardan foydalanish jarayoni amaldagi qonunchilik bilan taqiqlanmagan faoliyat doirasida amalga oshiriladi. Ijara munosabatlarining asosiy maqsadi ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini samarali tashkil etish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish va natijada qo'shimcha daromad olishdir.

Islom huquqshunosligi manbalarida ijara atamasi ikki xil amaliyot uchun qo‘llaniladi:[30]



2.1-chizma. Islom huquqshunosligi manbalarida ijara atamasining qo’llanilishi.

[30] https://globalhalal.uz/blog/datahub/ijara/?script=lat

Ma’lumotlarga ko’ra, birinchisi bir kishini xizmat haqi to‘lash asosida ishga yollash amaliyotidir. Ish beruvchi mustajir, yollanma ishchi esa ajir deyiladi. Agar A tomon ishxonasiga B tomonni boshqaruvchi yoki oddiy xodim qilib oylik maosh to'lash sharti bilan ishga olsa, A mustajir, B esa Ajir deyiladi. Shuningdek agar A chamadonlarini aeroportga ko'tarib borish uchun yuk tashuvchini yollasa, A mustajir, B esa ajir bo'ladi. Ikkala holatda ham tomonlar o'rtasidagi munosabat ijara muomalasi hisoblanadi. Bu turdagi ijaraga insonlarning xizmatlari yollanishi mumkin bo'lgan barcha ijara kelishuvlari kiradi. Bu xizmatlarga vrach, huquqshunos, o'qituvchi, ishchi yoki boshqa har qanday kasb vakillarining xizmatlari kirishi mumkin. Yollangan xizmatchilar “ajir”, ularni yollagan kishi “mustajir” deyiladi, ularga to'langan haq esa “ujra” deb nomlanadi.

Ijaraning ikkinchi turi inson xizmatidan emas, balki aktiv va mulklardan foydalanish holatiga taalluqli. Bunda ijara «muayyan mulkni ijara haqi evaziga boshqa shaxsning foydalanishiga topshirish» amaliyotini bildirib, ingliz tilida qo'llaniladigan «lizing» atamasi bilan bir xil ma`noda ishlatiladi. Bunda lizing beruvchi mujir, lizing oluvchi mustajir va lizing beruvchiga to'lanadigan ijara haqi ujra deb nomlanadi.

Ijara qonun-qoidalari lizing sifatida ko'p jihatdan savdo qonun-qoidalariga o'xshab ketadi. Chunki ikki holatda ham muayyan narsa arziydigan haq evaziga boshqa kishiga ko'chadi. Ijara va savdoning asosiy farqi shundaki, savdoda mulkning egaligi xaridorga ko'chadi, ijarada esa mulk egaligi ijaraga beruvchida qoladi, faqat mulkdan foydalanish huquqi ijara oluvchiga ko'chadi.

O‘zbekistonda ijara hisobi Fuqrolik Kodeksi, Soliq Kodeksi, bojxona Kodeksi, Yer Kodeksi, Lizing tog’risidagi qonun, Ijara to‘g‘risidagi Qonun, Buxgalteriya to‘g‘risidagi Qonun, 6-son BHMS, 16-son MHXS va boshqa me’yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi. (2.2-rasm)



2.2-rasm. Ijara hisobining me’yoriy-huquqiy asoslari

BHMS hamda MHXSda ijaraning ta’rifi hamda uning turlari keltirilgan. Quyida har ikkala standartlarni solishtiramiz:

2.12-jadval

6-son “Ijara hisobi” BHMS va 16-son “Ijara” MHXSning taqqoslanishi

Belgilar	6-son BHMS[31]	16-son MHXS[32]
Ijara	shartnoma asosida yerga, boshqa tabiiy resurslarga, shuningdek xo‘jalik faoliyatini va o‘zga faoliyatni mustaqil ravishda amalga oshirish uchun ijarachiga zarur bo‘lgan mol-mulkka haq evaziga muddatli egalik	tovon evaziga muayyan davr mobaynida aktiv(tayanch aktiv)dan foydalanish huquqi beriladigan shartnoma yoki shartnomaning bir qismi

[31] https://lex.uz/ru/docs/-85259, 6-son BHMS “Ijara hisobi”
[32] 16-son Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti “Ijara”

	qilish va undan foydalanishdan iboratdir	
Turlari	-moliyaviy ijara (lizingni qamrab olgan holda); -operativ ijara.	-moliyaviy ijara; -operativ ijara; -qisqa muddatli ijara; -past qiymatli tayanch aktiv bo‘yicha ijara.
Moliyaviy ijarada amortizatsiya	5-sonli BHMS “Asosiy vositalar”ga muvofiq	16-son BHXS “Asosiy vositalar”ga muvofiq
Ma’lumotlarni yoritib berish	Moliyaviy hisobotlarda va unga tushuntirish xatida yoritib beradi.	Moliyaviy hisobotlarda va izohlarda yoritib beradi.

Lizing (moliyaviy ijara) — ijara munosabatlarining alohida turi bo‘lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizingga oluvchining) topshirig‘iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing obyektini) mulk qilib sotib oladi va uni shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun lizingga oluvchiga o‘n ikki oydan ortiq muddatga beradi.[33]

Shuningdek korxonalarda lizing hisobini takomillashtirishda mamlakatimiz olimlaridan M.Umarova, O‘.Eshboyev, K.Ahmadjonov, Karimov A.A., Islomov F.R., Avloqulov A.Z. N.B.Abdusalomova, A.Z.Avlokulov, I.N.Ismanov, A.A.Karimov, Ibragimov A., Ochilov I., N.K.Rizayev, K.B.Urazov, M.E.Po‘latov, S.N.Tashnazarov, K.B.Urazov, B.A.Hasanov[34] va boshqa olimlar ilmiy izlanishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

[33] https://lex.uz/ru/docs/-85259, 6-son BHMS “Ijara hisobi”

[34] M.Umarova, O‘.Eshboyev, K. Ahmadjonov. Buxgalteriya hisobi: Darslik.-T.:Mehnat, 1999 Karimov A.A., Islomov F.R., Avloqulov A.Z. Buxgalteriya hisobi: Oliy o‘quv yurti talabalari uchun darslik.T.: “Sharq”, 2004. 592 b.

Ushbu olimlarning ilmiy izlanishlarida asosan korxonalarda lizing hisobi masalalari o’rganilgan. Quyidagi jadvalda ijara va lizingning farqlanishlari keltirilgan.(2.12-jadval)

2.13-jadval

Ijara va lizingning farqlanishlari[35]

	Ijara	**Lizing**
Ob’yektlari	korxonalar, ayrim ishlab chiqarishlar, sexlar, fermalar, boshqa bo‘linmalar, tashkilotlar; ayrim binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari, inventarlar, asboblar, boshqa moddiy boyliklar; er (qishloq xo‘jaligi uchun ajratilgan yerlar ijaraga faqatgina qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish uchun beriladi) va boshqa tabiiy resurslar	Tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan iste’mol qilinmaydigan har qanday ashyolar, shu jumladan korxonalar, mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari hamda boshqa ko‘char va ko‘chmas mulk
Sub’yektlari	Ijaraga beruvchi va ijarachi	Ishlab chiqaruvchi, lizing beruvchi, lizing oluvchi va sotuvchi
Shakllari (turlari)	Operativ, moliyaviy	Uchta subyekti ishtirok etadigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shaklda ham, lizing oluvchi va sotuvchi bo‘lib bir shaxsning o‘zi ishtirok

Ibragimov A., Ochilov i., Rizayev., Moliyaviy va boshqaruv hisobi. O’quv qo’llanma. -T.: IQTISOD-MOLIYA. 2008, 444 b. Abdusalomova N.B, Temirov F.T. Moliyaviy hisob. O‘quv qo‘llanma. –T.: IQTISODIYOT, 2021. – 283 b. Urazov K.B., Po‘latov M.E. Buxgalteriya hisobi. Darslik. T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi”, 2020, 558 b.

[35] https://lex.uz/acts/-112328, https://lex.uz/ru/docs/-85259 ga asosan muallif ishlanamasi

		etadigan qaytariladigan shaklda ham amalga oshirilishi mumkin
Shartnoma tuzish shakli	yozma shaklda, qonunchilikda belgilangan tartibda tuziladi	yozma shaklda, qonunchilikda belgilangan tartibda tuziladi
Shartnoma muddati	1 yilgacha; 1 yildan ortiq	12 oydan ortiq muddatga
To'lovlar	haq to`lash tartibi, shartlari va muddatlari mulk ijarasi shartnomasi bilan belgilanadi	Lizing to'lovlari shartnomaning butun amal qilish muddatiga taqsimlanadi va bo'lib-bo'lib to'lanadi. Lizing to'lovlarining miqdorlari va davriyligi lizing shartnomasi bilan belgilanadi
Mulk huquqi	Mol-mulkni ijaraga berish ana shu mol-mulkka egalik qilish huquqining boshqa kishiga o'tkazilishiga olib kelmaydi	Lizing ob'yektiga bo'lgan mulk huquqi lizing oluvchi tomonidan sotib olingunga qadar lizing beruvchiga tegishli

Ko'rinib turganidek, ijara va lizingning farqli jihatlari bo'lib, ular hisobini yuritishda hisobni takomillshtirish lozim.

Shuningdek, amaliyotda, adabiyotlarda va manbalarda prokat atamasi ham ishlatiladi. Fuqarolik Kodeksi[36]ga asosan prokat doimiy tadbirkorlik faoliyati sifatida mol-mulkni ijaraga beruvchi haq evaziga ijaraga oluvchiga vaqtinchalik egalik qilish va foydalanish uchun ko`char mol-mulkni topshirish hisoblanadi.

[36] https://lex.uz/docs/-180552#-184495

Xalqaro standartlarga asosan ijaraning huquqiy jihatiga balki uning iqtisodiy ahamiyatiga e’tibor qaratilishi ko’rsatib o’tilgan. Demak, ijara shartnomasida ijara sub’yektlari ijaraga beruvchi va ijaraga oluvchi; ijara ob’yekti aktivlari (ko’char, ko’chmas mulk, tayanch aktivlar, foydalanish huquqidagi aktivlar) identifikatsiyalanishi, ijaraga oluvchi ijara muddati davomida iqtisodiy naf olish huquqi, foydalanish huquqi ko’rinishidagi aktivdan foydalanish maqsadi, aktivni foydalanish muddati davomida aktivdan qay tarzda va qanday maqsadda foydalanishini oldindan belgilashi, ijara shartnomasining muddati va eng asosiysi ijara uchun to’lanadigan haq(to’lov) aniq identifikatsiyalanishi lozim. 16-son MHXSga asosan shartnoma ijara komponentiga egaligini quyidagi bosqichlar asosida aniqlashtirish lozim bo’ladi:

2.14-jadval

Ijara komponentlarini tan olish bosqichlari

<table>
<tr><td>Ijara komponentlarini tan olish bosqichlari</td><td>Ijara shartnomasi hisoblanadi</td><td>Ijara shartnomasi hisoblanmaydi</td></tr>
<tr><td>Identifikatsiyalangan aktiv mavjudmi?</td><td>Ha</td><td>Yo'q</td></tr>
<tr><td colspan="3">I bosqich. Aktiv identifikatsiyalanganmi? Agar javob “Yo‘q” bo‘lsa, ko‘rsatilayotgan xizmat ijara hisoblanmaydi va jarayon shu yerda yakunlanadi. Aksincha, javob “Ha” bo‘lsa, keyingi bosqichga o‘tiladi. Aktivning identifikatsiyalanganligi uning shartnomada ijara ob’yekti sifatida barcha belgi, o‘lcham va boshqa jihatlari bilan ko‘rsatilgan bo‘lishi lozimligini anglatadi.</td></tr>
<tr><td>Xaridor foydalanish muddati davomida aktivdan foydalanishdan amaldagi barcha iqtisodiy naflarni olish huquqiga egami?</td><td>Ha</td><td>Yo'q</td></tr>
<tr><td colspan="3">II bosqich. Ob’yektdan foydalanish muddati mobaynida xaridor deyarli barcha iqtisodiy naflarni olishga haqlimi? Xaridor aktivdan foydalanish muddati mobaynida mutlaq foydalanish huquqiga ega. Agar javob “Yo‘q” bo‘lsa, ko‘rsatilayotgan xizmat ijara hisoblanmaydi va jarayon shu yerda yakunlanadi. Aksincha, javob “Ha” bo‘lsa, keyingi bosqichga o‘tiladi.</td></tr>
</table>

Foydalanish muddati davomida aktivdan qay tarzda va qanday maqsadda foydalanishni kim belgilaydi?	Xaridor	Yetkazib beruvchi
III bosqich. ***Ob'yektdan qaysi maqsadda foydalanishni belgilash huquqi kimda? Foydalanish muddati mobaynida xaridor ushbu aktivdan qay tarzda va qanday maqsadda foydalanishni mustaqil hal qiladi. Bu savolga javob yetkazib beruvchi bo'lsa, bitim ijara hisoblanmaydi. Agar javob xaridor bo'lsa, bitim ijara hisoblanadi va jarayon shu yerda to'xtatiladi. Agar javob "noma'lum" bo'lsa, keyingibosqichgao'tiladi.***		
Xaridor foydalanish muddati davomida aktivni ekspluatatsiya qilish huquqiga egami?	Ha	
IV bosqich. ***Ob'yektdan foydalanish tartibini xizmat ko'rsatuvchi belgilashga haqli bo'lmagani holda xaridor o'zi belgilashga haqlimi? Agar javob "Ha" bo'lsa, ko'rsatilayotgan xizmat ijara hisoblanadi va jarayon shu yerda yakunlanadi. Aksincha, javob "Yo'q" bo'lsa, keyingi bosqichga o'tiladi.***		
Xaridor aktivni foydalanish muddati davomida aktivdan qay tarzda va qanday maqsadda foydalanishini oldindan belgilaydigan tarzda loyihalashtirganmi?	Ha	Yo'q
V bosqich. ***Ob'yektni butun foydalanish mobaynida muayyan maqsadda foydalanish uchun dastlab dizayn va qayta loyihalash ishlari xaridor tomonidan amalga oshirilganmi? Agar javob "Yo'q" bo'lsa, ko'rsatilayotgan xizmat ijara hisoblanmaydi va jarayon shu yerda yakunlanadi. Aksincha, javobingiz "Ha" bo'lsa, bitim ijara hisoblanadi va jarayon shu yerda yakunlanadi.***		

Yuqoridagi ijara komponentlari tan olingan dan so'ng bitim ijara shartnomasi hisoblanadi. Ijara shartnomasidagi ob'yekti ijaraga oluvchi uchun foydalanish huquqi ko'rinishidagi aktiv hisoblanadi.

Foydalanish huquqi koʻrinishidagi aktiv (FHKA) – bu ijara oluvchining ijara muddati davomida tayanch aktivdan foydalanish huquqi.

FHKA boshlangʻich qiymati boʻyicha tan olinadi. Xalqaro standartga muvofiq uning boshlangʻich qiymati quyidagi elementlardan tashkil topadi:

- ijara boʻyicha majburiyatlarning boshlangʻich bahosi miqdorida;
- ijara boshidagi sanada yoki shu sanagacha ijara toʻlovlari;
- har qanday boshlangʻich toʻgʻridan toʻgʻri xarajatlar;
- ijarachi tomonidan ijara shartlariga muvofiq bazovoy aktivni demontaj yoki siljitishiga qilingan xarajatlar.

Quyidagi misolda koʻrib oʻtamiz.

1-misol. Naturel MCHJ kompaniyasi 2023-yil 1-yanvarda qurilish ishlarini amalga oshirish uchun burgʻulash mashinasini ikki yilga ijaraga olish boʻyicha shartnoma tuzdi. Shartnoma ikki yildan keyin zaruriyat boʻlsa yana bir yilga uzaytirish mumkinlgini ham koʻzda tutadi. Naturel MCHJ katta bir ehtimol bilan bunday imkoniyatdan foydalanish mumkin deb baholaydi. Burgʻulash mashinasining xizmat qilish muddati 10 yil.

Birinchi ikki yilda ijara toʻlovlari 120 000 000 soʻm, uchinchi yil esa 150 000 000 soʻmni tashkil etadi. Barcha toʻlovlar yilning oxirida amalga oshiriladi. Ushbu ijarani tashkil etish uchun Naturel MCHJ korxonasi 32 500 000 soʻm boshlangʻich toʻgʻridan-toʻgʻri xarajatlarni amalga oshirgan. Shartnomaga kiritilgan foiz stavkasini aniqlashning imkoniyati yoʻq. Naturel MCHJ uchun qoʻshimcha jalb qilingan (qarz) mablagʻlarining stavkasi – 14%.

Aniqlash talab etiladi:

1. Ijara majburiyatlarining boshlangʻich qiymati;
2. Foydalanish huquqi koʻrinishidagi aktivning boshlangʻich qiymati;
3. Ushbu jarayolarni Naturel MCHJda buxgalteriya yozuvlarida aks ettirish.

1. Ijara majburiyatlarining boshlangʻich qiymatini aniqlaymiz. Buning uchun esa quyidagi jadvalni tuzamiz:

2.15-jadval

Ijara majburiyatlarining keltirilgan (privedennaya) qiymatini aniqlash hisob kitobi

Sana	Pul oqimi	Diskontlash stavkasi, %	Ijara majburiyatlarining keltirilgan qiymati
2023-yil 31 dekabr	120 000 000	$1/1.14$	105 263 158
2024-yil 31 dekabr	120 000 000	$1/1.14^2$	92 336 103
2024-yil 31 dekabr	150 000 000	$1/1.14^3$	101 245 727
Ijara majburiyatlarining keltirilgan qiymati			**298 844 988**

2. Foydalanish huquqi ko‘rinishidagi aktivning (FHKA) boshlang‘ich qiymati aniqlaymiz. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, FHKAning boshlang‘ich qiymati ijara majburiyatlarining boshlang‘ich qiymati bilan ushbu ijarani tashkil etish, ijara ob’yektini keltirish, o‘rnatish va ishlatish bilan bog‘liq xarajatlar qo‘shiladi. Ushbu standart qoidalariga muvofiq holda FHKAni aniqlash uchun quyidagi 2-jadvalni tuzamiz.

2.16-jadval

Foydalanish huquqi ko‘rinishidagi aktivning boshlang‘ich qimatini aniqlash bo‘yicha hisob-kitoblar

Xalqaro standartlarga muvofiq FHKAning boshlang‘ich qiymati elementlari	**Summa**
1. Ijara bo‘yicha majburiyatlarning boshlang‘ich bahosi miqdorida	298 844 988

2. Ijara boshidagi sanada yoki shu sanagacha ijara to‘lovlari	-
3. Har qanday boshlang‘ich to‘g‘ridan to‘g‘ri xarajatlar	32 500 000
4. Ijarachi tomonidan ijara shartlariga muvofiq bazovoy aktivni demontaj yoki siljitishiga qilingan xarajatlar	-
Foydalanish huquqi ko‘rinishidagi aktivlarning boshlang‘ich qiymati (298 844 988 + 32 500 000)	**331 344 988**

Amaldagi schotlar rejasida foydalanish huquqi ko‘rinishidagi aktivlarni aks ettirish uchun schotlar ko‘zda tutilmagan. Shu sababli 21-son BHMS bilan tasdiqlangan buxgalteriya hisobi schotlar rejasiga quyidagi schotlarni kiritishni tavsiya etamiz.

2.17-jadval

Ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni hisobga olish maqsadida taklif etilayotgan schotlar

Schotning t.r.	Taklif etilayotgan schotlarning nomi
0300	**IJARA SHARTNOMASI BO‘YICHA OLINGAN ASOSIY VOSITALARNI HISOBGA OLUVCHI SCHOTLAR**
0310	Foydalanish huquqi ko‘rinishidagi aktiv
0320	Moliyaviy ijaraga olingan asosiy vositalar
0298	Foydalanish huquqi ko‘rinishdagi aktivning eskirishi
0299	Moliyaviy ijaraga olingan asosiy vositalarning eskirishi

Masalaning yechimi doirasida aniqlangan ko‘rsatkichlar asosida FHKA va ijara majburiyatlariga doir buxgalteriya yozuvlarini amalga oshiramiz.

1. Ijara majburiyatlarining keltirilgan (privedennaya) qiymat summasiga quyidagicha buxgalteriya yozuvi beriladi:
D-t 0310 “Foydalanish huquqi ko‘rinishidagi aktiv”..... 298 844 988 so‘m
K-t. 6910 “Ijara majburiyatlari”.....298 844 988
Asos. Birinchi ikki yilda ijara to‘lovlari 120 000 000 so‘m, uchinchi yil esa 150 000 000 so‘mni tashkil etadi. Barcha to‘lovlar yilning oxirida amalga oshiriladi. Chetdan mablag‘ jalb qilish stavkasi 14%ni tashkil etadi. Hisob-kitoblarga asosan ijara majburiyatlarining keltirilgan qiymati 298 844 988 so‘mni tashkil etdi.
2. Ijaraga olingan obyekt bo‘yicha boshlang‘ich amalga oshirilgan to‘g‘ridan to‘g‘ri xarajatlarga quyidagicha buxgalteriya yozuvi beriladi:
D-t 0310 “Foydalanish huquqi ko‘rinishidagi aktiv”.....32 500 000 so‘m
K-t 6990 “Boshqa majburiyatlar”.....32 500 000
Asos: Ijaraga olingan burg‘ulash mashinasini ishga tushirish uchun ish bajaruvchi tashkilot tomonidan 32 500 000 so‘mga ish bajarildi. Ish bajarilgan tashkilot tomonidan schot-faktura taqdim etildi. Naturel MCHJ tomonidan ushbu xarajatlar ijara olingan obyekt bo‘yicha to‘g‘ridan to‘g‘ri amalga oshirilgan boshlang‘ich xarajatlar sifatida tan olindi.

Korxonalarda ijara hisobini takomillashtirish borasida quyidagi xulosalar qilindi:

Korxonalarda ijara shartnomalarining nafaqat huquqiy shaklini, balki iqtisodiy ahamiyatini xalqaro standartlar asosida tan olinishini joriy etish;

Ijara shartnomasida ijara komponentlari aniq ko’rsatilishiga va ularning identifikatsiyalanishiga erishish;

Foydalanish huquqi ko‘rinishidagi aktivlar va moliyaviy ijara (lizing)ga olingan asosiy vositalarni alohida guruhlash hamda ularni taklif etilayotgan shotlarda aks ettirish;

Foydalanish huquqi ko‘rinishidagi aktivlarning boshlang‘ich qiymatini xalqaro standartlarga asosan ijara bo‘yicha majburiyatlarning boshlang‘ich bahosi miqdorida, ijara boshidagi sanada yoki shu sanagacha ijara to‘lovlari har qanday boshlang‘ich to‘g‘ridan to‘g‘ri xarajatlar, ijarachi tomonidan ijara shartlariga muvofiq tayanch aktivni

demontaj yoki siljitishiga qilingan xarajatlarni hisobga olgan holda buxgalteriya hisobida aks ettirish.

2.9-§. Majburiyatlarni hisobga olishning amaldagi tartibi va uni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning zaruriyati

(Dildora Pashaxodjayeva dotsent, PhD; Odinaxon Ikromova tayanch doktorant)

Hozirgi kunda barcha mamlakatlar iqtisodiyotining integratsiyalashuvi va ular tomonidan faol investetsiya siyosatining qo'llanilishi - ishonchli, aniq va barcha uchun birdek tushunarli bo'lgan moliyaviy axborotlarga bo'lgan talabning yuqori ekanligini ko'rsatadi. Bunday turdagi axborotlar asosan korxonaning buxgalteriya hisobi natijasida vujudga keladi va moliyaviy hisobotlar ko'rinishida axborot iste'molchilariga taqdim qilinadi. Biz bilamizki, buxgalteriya hisobining yakuniy natijasi - bu moliyaviy hisobotlar bo'lib hisoblanadi. Moliyaviy hisobotlarning asosiy vazifasi o'z navbatida ichki va tashqi axborotdan foydalanuvchilarini aniq moliyaviy axborotlar bilan ta'minlash hisoblanadi. Moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar salmog'ini kengaytirish va barcha uchun tushunarli holda tayyorlanishi hamda iqtisodiyotimizning xalqaro darajada raqobatbardoshligini oshirish maqsadida moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlar asosida tayyorlanmoqda. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) – bu hozirgi kunda umumjahon biznes tili bo'lib hisoblanadi. Ushbu standartlar kompaniyalar va tashkilotlar o'zlarining moliyaviy holatlari haqida hisobotni qanday tarzda tayyorlashini belgilaydi. Ushbu standartlarga asoslangan hisobotlarni esa butun dunyoda tushunishadi.

Mamlakatimizda ham iqtisodiyotimizni yanada rivojlantirish va jahon maydonida nufuzini yanada mustahkamlash borasida ushbu standartlardan foydalanish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli "Moliyaviy Hisobotning Xalqaro

MUNDARIJA

KIRISH 3

I BOB. O‘ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI 13

1.1-§. O‘zbekistonda buxgalteriya hisobini taraqqiy ettirilishining asosiy yo‘nalishlari 13
1.2-§. Moliyaviy hisobotning komponentlari va elementlari hamda ularni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish 24
1.3-§. Moliyaviy hisobotning sifat tavsifi 33
1.4-§. Buxgalteriya hisobi tizimini yanada takomillashtirishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan foydalanishning ahamiyati 42
1.5-§. Buxgalteriya hisobi milliy standartlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq uyg’unlashtirish zaruriyati 48
1.6-§. Tannarx buxgalteriya hisobing nazariy asoslari 55

II BOB. YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA MHXSLARIGA MUVOFIQ AKTIVLAR VA MAJBURIYATLAR HISOBINING METODOLOGIK MASALALARI 74

2.1-§. Mablag'larning tasnifi va ularning buxgalteriya hisobidagi o'rni va ahamiyati 74
2.2-§. Hujjatlar aylanishi, kassa operatsiyalarini hisobga olishni tahlil qilish 82
2.3-§. Korxonalarda naqd pul hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishni tahlili 89
2.4-§. Korxonalarda pul oqimi to‘grisidagi hisobotini moliyaviy buxgalteriya jadvallar asosida shaklini ko‘rib chiqish 97
2.5.-§. 16-son BHXS “ASOSIY VOSITALAR” standartiga muvoviq ko‘chmas mulk (yer, bino), mashina va asbob-uskunalar bilan bog‘liq davomiy xarajatlar hisobining metodik masalalari 102
2.6-§. Asosiy vositalarni xalqaro standartlarga muvoviq qadrsizlanishi hisobini takomillashtirish 110
2.7-§. Asosiy vositalarga doir axborotlarni hisobotlarda aks ettirish medodologiyasini takomillashtirish 119
2.8-§. Ijara hisobining me’yoriy-huquqiy asoslari va ijarani tan olish bosqichlari 128
2.9-§. Majburiyatlarni hisobga olishning amaldagi tartibi va uni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning zaruriyati 143